

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MULTIMEDIA TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18194105>

Buxoro Osiyo Xalqaro Universiteti

1-kurs magistranti **Nurillayeva Zebiniso Hikmatulla qizi**

Annotatsiya.

Mazkur maqolada multimedia ta'lim vositalaridan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Multimedia texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari, ularning o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va mustaqil faoliyatiga ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, multimedia vositalaridan samarali foydalanish shartlari va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar

multimedia ta'lim vositalari, ijodiy qobiliyat, boshlang'ich ta'lim, innovatsion ta'lim, raqamli texnologiyalar.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olish jarayonida faol, qiziquvchan va tasavvurga boy bo'lishlari bilan ajralib turadi. Shu sababli ularning tabiiy ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir.

Multimedia ta'lim vositalari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, dars jarayonini jonlantiradi va o'rganilayotgan materialni yanada tushunarli qiladi. Ushbu vositalardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda ijodiy qobiliyatlar shaxsning mustaqil fikrlashi, yangi g'oyalar yaratishi va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatini ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodkor o'quvchi bilimlarni faqat qabul qiluvchi emas, balki ularni qayta ishlovchi va amaliyotda qo'llovchi subyektga aylanadi.

An'anaviy ta'lim usullarida ko'pincha tayyor bilimlarni o'zlashtirishga urg'u beriladi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy faolligini cheklashi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga keladi. Multimedia ta'lim vositalarining pedagogik imkoniyatlari juda ham keng. Multimedia ta'lim vositalari matn, grafik tasvir, audio, video va animatsiya elementlarini birlashtirgan holda axborotni taqdim etishga xizmat qiladi. Bunday vositalar o'quvchilarning turli sezgi organlari orqali bilim olishiga imkon yaratadi. Natijada o'quv materialining esda qolish darajasi oshadi. Multimedia vositalari yordamida dars jarayonida interaktiv muhit yaratiladi. O'quvchilar taqdimotlar, animatsiyalar, ta'limiy o'yinlar va virtual mashqlar orqali faol ishtirok etadilar. Bu esa ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Multimedia ta'lim vositalari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini quyidagi yo'nalishlarda rivojlantiradi:

- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- tasavvur va fantaziyani rivojlantiradi;
- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Masalan, raqamli hikoya tuzish, rasm va video yaratish, interaktiv topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilar o'z ijodiy g'oyalarini namoyon etish imkoniga ega bo'ladilar.

Lekin multimedia ta'lim vositalaridan samarali foydalanish bir nechta pedagogik shartlarga bog'liq:

- o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- dars maqsadlariga mos multimedia materiallarini tanlash;
- multimedia vositalarini an'anaviy o'qitish usullari bilan uyg'unlashtirish;
- o'qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish.

Ushbu shartlarga rioya qilinganda multimedia vositalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda multimedia ta'lim vositalari asosida o'quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir bir necha xil metodlar va amaliy tavsiyalar:

1. Multimedia asosida muammoli ta'lim metodi

Ushbu metod o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida animatsiya, qisqa video yoki interaktiv slaydlar orqali muammoli vaziyat yaratiladi. O'quvchilar ushbu muammoni tahlil qilib, o'z fikr va yechimlarini ilgari suradilar. Natijada esa tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

2. Raqamli hikoyalash (Digital storytelling) metodi

Mazkur metodda o'quvchilar multimedia vositalari yordamida hikoya, ertak yoki voqeani rasm, audio va video elementlar bilan boyitib yaratadilar. Ushbu jarayonda ularning tasavvuri, nutqiy faoliyati va ijodiy yondashuvi rivojlanadi. Bundan tashqari bu metod kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Interaktiv taqdimotlar metodi

Interaktiv taqdimotlar (animatsiya, test, ovozli izohlar bilan) o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi. O'quvchilar faqat tomoshabin bo'lib qolmay, balki taqdimot mazmunini to'ldiradilar, savollarga javob beradilar va yangi g'oyalar taklif qiladilar. Bu metod orqali faollik va ijodiy tashabbus ortadi.

4. "Rasm + gap tuz" metodi

O'qituvchi interaktiv doskada yoki projektorda rasm ko'rsatadi. O'quvchilar rasm asosida og'zaki yoki yozma gap tuzadilar. Keyin o'sha gapni ovoz yozish orqali aytib beradilar. Ijodiy natija tasavvur rivojlanadi, nutq va ijodiy fikrlash shakllanadi.

5. "Videoni davom ettir" metodi

Qisqa multfilm yoki video qo'yib beriladi va biroz vaqtdan so'ng to'xtatiladi. O'quvchilardan "Keyin nima bo'ladi?" deb so'raladi. Ular og'zaki, rasm yoki slayd orqali davom ettiradilar. Ijodiy natija mantiqiy va ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish shakllanadi.

6. "Multimedia ertak" metodi

Ertak rasmlar bilan boshlanadi. O'quvchilar ertakni og'zaki yoki rasm bilan davom ettiradilar. Natijada esa tasavvur va fantaziya nutqiy ijod rivojlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, multimedia ta'lim vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishga, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Multimedia texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish va ijodkor shaxsni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva, M. A. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Jo'rayev, R. H., Zunnunov, A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

3. Mayer, R. E. Multimedia Learning. – New York: Cambridge University Press, 2017.
4. Robler, M. D., Hughes, J. E. Integrating Educational Technology into Teaching. – Boston: Pearson Education, 2018.
5. Saidova, D. S. Boshlang'ich ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.